YASHIL IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal





“MILLIY IQTISODIYOTNI BARQAROR SAQLASHDA “YASHIL IQTISODIYOT”, “YASHIL MOLIYA”, “YASHIL BUXGALTERIYA” VA ILG‘OR MUHANDISLIK MAKTABLARINI ILMIY-AMALIY INTEGRATSIYALASHTIRISH DOLZARBLIGI”

Maqola va tezislar to‘plami

2025-YIL
30-MAY

74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982

YASHIL
IQTISODIYOT&TARAQQIYOT
Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Elektron nashr. 149 sahifa.
E'lon qilishga 2025-yil 11-martda ruxsat etildi.

Bosh muharrir:
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:
Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:
Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:
Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoira Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT
Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Viktorovna, Candidate of Economic Sciences (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI

Ekspertlar kengashi:
Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po‘latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
G‘afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o‘qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:
Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Khusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Rakhimovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: “Ma’rifat-print-media” MChJ
Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘zR Tabiat resurslari vazirligi, O‘zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:
““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali
O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

MUNDARIJA

Omborxonada wms tiziminidan foydalanishni afzalliklari 16
G‘ofurov Shoxjaxon Abdumajit o‘g‘li, Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich

Интеграция проектного офиса в корпоративную структуру строительной компании, работающей по epc-контрактам 21
Махмудов Сардор Козим угли

Investitsion muhit va unga ta’sir etuvchi omillar tahlili 24
Ochilov Bobur Baxtiyor o‘g‘li

Tadbirkorlik faoliyati to‘g‘risidagi itimoiy-iqtisodiy qarashlar tahlili 27
Abduvohidov Behzod XXX

Tijorat banklarida kredit portfelini boshqarishning asosiy yo‘nalishlari 30
Jo‘rayev Eldor Berdibekovich

O‘zbekistonda davlat budjetini kupaytirishda soliqlarni ahamiyati 34
Karimova Gulbahor Normurodovna

Dunyo oziq-ovqat bozorining dinamik rivojlanishidagi o‘zgarishlar, qiyinchiliklar va ularning yechimlari 36
Tolipova Baxtigul Farxodovna

Исследование тепловых и диффузионных процессов при азотировании зубчатых колес в вакуумной среде 39
Жасурбек Юлдашбоевич Холмирзаев

Axborot tizimlaridan foydalangan holda tashkilotni boshqarish bo‘yicha qarorlar qabul qilishni takomillashtirish 49
Xujamova Shahrizoda Otabek Qizi

Sanoat sektorida dekarbonizatsiya va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish strategiyalari 52
Bobobekov Ergash Abdumalikovich

Sanoat rivojlanishini ekonometrik modellashtirish (Surxondaryo viloyati misolida) 56
Xalmuratov Zakirjan Mekkamovich

“Yashil iqtisodiyot” – barqaror taraqqiyot omili 58
Lapasova Kamola Farhod qizi

Umumta’lim maktablarida informatika fanini o‘qitishda sun’iy intellektdan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari 60
Raxmonov Baxtiyor Azzamovich

“Makroiqtisodiy masalalarni yechishda matematik modellarning ahamiyati” 63
Abdiraimov Abbos Xolmurod O‘g‘li

Moda marketingida iste’molchilarning ichki ehtiyojlari va xulq-atvoriga asoslangan yondashuvlar 67
Tuxtaeva Oydinoy Normamatovna

O‘zbekiston Respublikasida standartlashtirish siyosatida xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik tahlili 72
Raximov Ilyos Muydinovich

Tijorat banklarida omonatlarni jalb qilishda mijoz sodiqligini oshirishga qaratilgan innovatsion yondashuvlar 75
Raximov Shoxrux Furqatovich

Raqamli bank xizmatlarida sun’iy intellektdan foydalanishning istiqbollari va xavfsizlik masalalari 78
Erdonayev Aliqul Xalimovich

Ta’minot zanjirini optimallashtirish yo‘llari 82
Matkarimova Umida Alisher qizi, Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich

The role of global value chains in international trade competition 85
Rakhmonova Dildora Ergash Qizi

Электронная коммерция в узбекистане: государственные стратегии, технологический прогресс и барьеры развития 88
Махаммадалиева Муслимахон Шерали Кизи

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Modernization of the social protection system through digital technologies and innovative approaches 90
Abduzoirov Mukhiddin Umidjon ugli, Qudratov Inomjon Nemat ugli

Tabiiy va sun'iy tolalar asosida qayta ishlangan mahsulotlarning texnologik sifati va iqtisodiy samaradorligi 93
Raximov Furqat Jalalovich

Maishiy kimyo tovarlari B2B bozori uchun barqaror va yashil taqsimot modellarini ishlab chiqish 97
Ro'ziyeva Farzona Komiljon qizi

Chakana savdo va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish orqali hududiy iqtisodiyotni rivojlantirish 102
Po'latova Sug'diyona Iskandar qizi, Abdullayev Firdavs Sanjar o'g'li, Ravshanova Muxtarama

Zamonaviy shahar massivlarida xizmat ko'rsatish va boshqarishda "Aqlli shahar" konsepsiyasi 105
Ismailov Najmiddin Ilxamovich

Germaniyaning ta'minot zanjirlarini boshqarish tajribasidan foydalanishni afzalliklari 108
Nuriddinov G'ulomiddin Ziyovuddin o'g'li, Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich

Ta'minot zanjirida CPFR texnologiyasi foydalanishni afzalliklari 111
Komilov Muhammmad Yusuf Sardorbek o'g'li, Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich

Ta'minot zanjirlarini qo'llashda jahon tajribasi 115
Karimov Amirxon Anvarovich, Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich

Sug'urtada investisiya faoliyatini tashkil etishni huquqiy asoslari 118
Suyunov Isomiddin Tilovkobilovich

Yurtimizda amaldagi budjetlararo munosabatlar tartibi, hisobi hamda uning afzalliklari 122
Po'latov Tirkash Sotiboldiyevich

Aholini ijtimoiy himoya qilish institutlari shakllanishining xorij tajribalari 127
Bobonov N.H.

Способ организации продуктивной работы преподавателя и его влияние на результативность 131
Гулнора Казимова

Literature is a reflection of the soul and culture of humanity 136
Sayidova Sayyora Yorikulovna

Turizm infratuzilmasida transport xizmatlarini integratsiyalash: muammo va yechimlar 140
Vakilov Ruslan Tillabayevich

Ekoturizm va madaniy meros obyektlariga tashrifni tartibga soluvchi huquqiy normalar 142
Sayfiddinov Sharofiddinxo'ja Najmiddin o'g'li

Strategies for achieving sustainable growth through green economy transition 145
Umida Kakhramonova Gayratovna

MAQOLA VA TEZISLAR TO‘PLAMI

EKOTURIZM VA MADANIY MEROS OBYEKTLARIGA TASHRIFNI TARTIBGA SOLUVCHI HUQUQIY NORMALAR

Sayfiddinov Sharofiddinxo‘ja Najmiddin o‘g‘li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Mustaqil izlanuvchi, PhD
ORCID: 0009-0000-6949--5505

Annotatsiya: Ushbu maqolada ekoturizm va madaniy meros obyektlariga tashrifni tartibga soluvchi huquqiy normalar chuqur tahlil qilinadi. Tabiiy va tarixiy obyektlarni muhofaza qilish, ulardan oqilona foydalanish, ekologik xavfsizlikni ta’minlash hamda muhofaza zonalari va u bilan bog‘liq cheklovlarni huquqiy jihatdan tartibga solish masalalari yoritilgan. Mamlakatda sohani rivojlantirishga qaratilgan islohotlar, mavjud qonunchilik asoslari, xalqaro tajriba va raqamlashtirish orqali ta’minlanayotgan imkoniyatlar keng ko‘lamda tahlil etiladi. Ekoturizm va madaniy turizmning barqaror rivojlanishi uchun zarur huquqiy mexanizmlar va institutlar faoliyati o‘rganiladi.

Kalit so‘zlar: ekoturizm, madaniy meros, huquqiy normalar, muhofaza zonasi, ekologik xavfsizlik, qonunchilik, turizm strategiyasi, davlat-xususiy sheriklik, barqaror rivojlanish, raqamlashtirish.

Abstract: This article provides an in-depth analysis of the legal regulations governing visits to ecotourism sites and cultural heritage landmarks. It explores the preservation and rational use of natural and historical sites, legal frameworks for protection zones, ecological safety, and restrictions in these areas. The study highlights ongoing reforms in Uzbekistan, the development of legal foundations, integration of international practices, and digital transformation in the tourism sector. The research also addresses institutional mechanisms and legal tools needed for the sustainable development of eco- and cultural tourism.

Key words: ecotourism, cultural heritage, legal norms, protection zone, ecological safety, legislation, tourism strategy, public-private partnership, sustainable development, digitalization.

Аннотация: В статье проводится комплексный анализ правовых норм, регулирующих посещение объектов экотуризма и культурного наследия. Особое внимание уделено вопросам охраны природных и исторических памятников, обеспечению экологической безопасности, регулированию охранных зон и существующим ограничениям. Рассматриваются реформы, реализуемые в Узбекистане, а также законодательная база, международный опыт и цифровизация в сфере туризма. Оцениваются механизмы устойчивого развития и роль государственных и частных институтов в сохранении культурного и экологического наследия.

Ключевые слова: экотуризм, культурное наследие, правовые нормы, охранная зона, экологическая безопасность, законодательство, стратегия туризма, государственно-частное партнёрство, устойчивое развитие, цифровизация.

So‘nggi yillarda ekoturizm va madaniy meros obyektlariga qiziqish ortib borayotgan bir paytda, bu yo‘nalishdagi huquqiy tartibotlar dolzarb masalaga aylanmoqda. Ekoturizm – bu nafaqat tabiiy go‘zalliklardan bahramand bo‘lish, balki atrof-muhitga minimal darajada zarar yetkazgan holda sayohat qilishga asoslangan zamonaviy turizm shaklidir. Shu bilan birga, madaniy meros obyektlari – tarixiy, me’moriy va arxeologik qadriyatlar – milliy o‘zlikni saqlash, fuqarolarda estetik va tarixiy tafakkurni shakllantirishda alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu resurslarga bo‘lgan ortib borayotgan talab ularning himoyasi, foydalanish tartibi va ekologik xavfsizlikni ta’minlovchi huquqiy asoslarni yaratishni talab qilmoqda.

Tabiiy va madaniy obyektlar muhofazasi – xalqaro va milliy qonunchilikda alohida e’tiborga molik yo‘nalish bo‘lib, u ekologik barqarorlikni ta’minlash, biologik xilma-xillikni saqlab qolish va tarixiy merosni keyingi avlodlarga yetkazish kabi asosiy tamoyillarga tayanadi. Ayniqsa, muhofaza zonalarini belgilash, tashrif tartiblarini qonuniy me’yorlar bilan tartibga solish, xavfsizlik choralarini kuchaytirish va ekspluatatsiya chegaralarini aniq belgilab qo‘yish bugungi kunda davlat siyosatining muhim jihatlaridan biri sifatida shakllanmoqda.

Ekoturizm va madaniy meros obyektlariga tashrifni tartibga soluvchi huquqiy normalar tahlilida birinchi navbatda ushbu sohalarning o‘zaro aloqadorligi va ularning umumiy barqaror rivojlanishdagi roli aniqlab olinadi. Ekoturizm – bu atrof-muhitga zarar yetkazmasdan, tabiiy resurslardan oqilona foydalangan holda amalga oshiriladigan turizm turi bo‘lib, ekologik barqarorlik tamoyillariga tayanadi. Shu bilan birga, madaniy meros obyektlari tarixiy, estetik va me’moriy ahamiyatga ega bo‘lgan, xalqning o‘zligini aks ettiruvchi noyob qadriyatlar sifatida baholanadi. Mazkur obyektlarga bo‘lgan qiziqishning ortib borishi esa ularni tartibga soluvchi va muhofaza qiluvchi huquqiy normalarni shakllantirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Ekoturizm faoliyatining qonunchilik asoslari O‘zbekiston Respublikasining bir qator me’yoriy hujjatlarida o‘z ifodasini topgan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining 1992-yil 9-dekabrdagi “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi 754-XII-son[1] Qonuni, 2018-yil 16-apreldagi “O‘rmon to‘g‘risida”gi O‘RQ-475-son[2] Qonuni, 1990-yil 20-iyundagi “Yer to‘g‘risida”gi 97-XII-son[3] Qonuni hamda 2019-yil 18-iyuldagi “Turizm to‘g‘risida”gi O‘RQ-549-son[4] Qonuni bu boradagi asosiy manbalardir. Ushbu qonun hujjatlari orqali tabiiy resurslardan foydalanish tartibi, ularga tashrif buyurish qoidalari va ekologik xavfsizlik me’yorlari belgilab qo‘yilgan. Ayniqsa, muhofaza etiladigan tabiiy hududlar (biosfera qo‘riqxonalari, tabiiy bog‘lar, yodgorliklar)da ekoturistik faoliyat yuritishda maxsus ruxsatnomalar tizimi, tashrif buyuruvchilar sonining cheklanishi, ekologik monitoring va nazorat mexanizmlari joriy etilgan.

Madaniy meros obyektlarini huquqiy muhofaza qilish esa O‘zbekiston Respublikasining 2001-yil 30-avgustdagi “Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida”gi 269-II-son[5] Qonunida yoritilgan. Ushbu hujjatda tarixiy obidalarni qayta tiklash, rekonstruksiya qilish, ulardan foydalanish tartibi va ularga zarar yetkazgan shaxslarga nisbatan javobgarlik choralarini qo‘llash belgilangan. Ayni paytda, O‘zbekistonda mavjud 8000 dan ortiq madaniy meros obyektlari, jumladan, YuNESKO ro‘yxatiga kiritilgan obidalar, turizm salohiyatining muhim tarkibiy qismini tashkil etadi. Bu esa ularning huquqiy himoyasini yanada kuchaytirishni talab qiladi. Mamlakatda madaniy meros obyektlariga oid huquqiy me’yorlarni amalga oshirishda “Davlat tarixiy madaniy ekspertiza markazi”, “Madaniy meros agentligi” hamda hududiy boshqarmalarning roli beqiyosdir.

Muhofaza zonalari va cheklovlar tizimi ham ekoturizm va madaniy turizm faoliyatida muhim rol o‘ynaydi. Bunday zonalar o‘z ichiga asosiy obyektlar atrofidagi 100–500 metr masofani olishi mumkin bo‘lib, u yerda har qanday qurilish, saqlash, transport harakati yoki savdo faoliyati qat’iyan tartibga solinadi. Bu cheklovlar ekologik muvozanatni saqlab qolish, degradatsiya va insoniy bosimni kamaytirish uchun muhimdir. Masalan, Buxoro, Samarqand, Shahrisabz, Xiva kabi shaharlarda shunday zonalarning mavjudligi madaniy obidalarni buzilishdan himoya qilishda ijobiy natijalar bermoqda. Bundan tashqari, ekologik xavfsizlik tamoyillari asosida tashrif buyuruvchilarning xatti-harakatlarini tartibga solish, chiqindilarni boshqarish, biosfera buzilishini oldini olish choralarini ko‘rish bugungi kundagi dolzarb masalalardan biridir.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda ushbu sohalarni rivojlantirish va ularning huquqiy asoslarini takomillashtirish borasida bir qator islohotlar amalga oshirildi. Xususan, “2022–2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish strategiyasi” doirasida madaniy meros obyektlarini raqamlashtirish, ularning 3D modellarini yaratish va virtual turizm imkoniyatlarini kengaytirish belgilandi. Bu islohotlar aholining ushbu obyektlarga nisbatan munosabatini o‘zgartirish, ularga nisbatan mas’uliyat hissini oshirishga xizmat qilmoqda.

Yana bir muhim yondashuv – bu davlat-xususiy sheriklik asosida ekoturizm obyektlarini boshqarish tizimini shakllantirishdir. Xususiy sektor vakillari uchun huquqiy kafolatlar, soliq imtiyozlari, subsidiyalar va grantlar ajratilishi orqali turizm obyektlariga sarmoya jalb qilinmoqda. Bu esa ularning xizmatlar sifatini oshirish, zamonaviy infratuzilmani rivojlantirish, ekologik normalarga mos faoliyat yuritishiga turtki bo‘layotir. Ayni vaqtda ekoturizm sohasida xizmat ko‘rsatayotgan subyektlar uchun maxsus standartlar, atrof-muhit monitoringi va audit tizimlari joriy etilmoqda.

Yoshlar va mahalliy aholi ishtirokini kuchaytirish maqsadida bir qator ijtimoiy dasturlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, maktab va oliy o‘quv yurtlarida ekologik va tarixiy madaniyat asoslariga oid darslar, interaktiv loyihalar, tanlovlar va sayohatlar tashkil etilmoqda. Bu orqali kelajak avlodda ushbu obyektlarga nisbatan e’tibor va ongli yondashuv shakllantirilmoqda. Shuningdek, mahalliy aholiga gidlik, qo‘llanma tayyorlash, xizmat ko‘rsatish madaniyati, ekohostel boshqaruvi kabi yo‘nalishlarda trening va malaka oshirish kurslari o‘tkazilmoqda.

Xalqaro hamkorlik masalasida ham ijobiy siljishlar kuzatilmoqda. O‘zbekiston YuNESKO, IUCN, UNWTO kabi nufuzli tashkilotlar bilan hamkorlikda madaniy va ekologik meros obyektlarini ro‘yxatga olish, saqlash, tiklash va xalqaro e’tirof etish bo‘yicha loyihalarni amalga oshirmoqda. Shu bilan birga, xorijiy ekspertlar bilan tajriba almashish, ilg‘or boshqaruv usullarini joriy etish, xalqaro grant va investitsiyalarni jalb qilish orqali sohaning institutsional salohiyati oshirilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, ekoturizm va madaniy meros obyektlariga tashrifni huquqiy jihatdan tartibga solish masalasi nafaqat milliy qonunchilikni takomillashtirish, balki barqaror rivojlanish tamoyillariga asoslangan yondashuvni qaror toptirishga xizmat qiladi. Ushbu sohada qabul qilinayotgan me’yoriy-huquqiy hujjatlar, muhofaza zonalari rejimining aniqligi, ekologik xavfsizlikka oid talablarning qat’iy belgilanishi hamda tarixiy obidalarni asrash borasidagi mexanizmlar – barchasi ekologik barqarorlik, turizm salohiyatining ortishi va merosni saqlashda ijobiy natijalarni ta’minlamoqda. Shu bilan birga, mavjud qonunchilik asoslarini yanada

1 https://lex.uz/acts/-107115
2 https://lex.uz/docs/-3683529
3 https://lex.uz/acts/-147456
4 https://lex.uz/docs/-4428097
5 https://lex.uz/docs/-25461

boyitish, ularni amaliyotga samarali tatbiq etish va monitoring mexanizmlarini mustahkamlash bugungi kundagi ustuvor vazifalardan sanaladi.

Sohani yanada rivojlantirish uchun birinchi navbatda, ekologik va madaniy turizm bilan bog‘liq alohida qonun hujjatlarining qabul qilinishi, mavjud hujjatlarning esa amaliy tavsiyalar bilan boyitilishi maqsadga muvofiqdir. Ekoturizm obyektlariga tashrif tartiblarini belgilovchi raqamli monitoring tizimlarini joriy etish, QR-kodli muhofaza belgilaridan foydalanish, har bir tashrif buyuruvchining ekologik madaniyatini oshiruvchi interaktiv axborot vositalarini keng qo‘llash orqali ham ekologik xavfsizlikni ta’minlash, ham aholini jalb etish imkoniyatlarini oshirish mumkin. Shu bilan bir qatorda, madaniy meros obyektlarini asrashda mahalliy hamjamiyatlar ishtirokini kengaytirish, ularga muhofaza qilinayotgan hududlar taqdirida bevosita ishtirok etish vakolatini berish orqali ijtimoiy mas’uliyat va barqarorlikni ta’minlash mumkin bo‘ladi. Ekoturizm faoliyati bilan shug‘ullanuvchi subyektlar uchun maxsus litsenziyalash va sertifikatlash tizimining joriy etilishi esa ushbu sohada xizmatlar sifati, xavfsizlik darajasi va ekologik mezonlar bo‘yicha yagona standartlar shakllanishiga xizmat qiladi.

Xalqaro tajribani chuqur tahlil qilgan holda, O‘zbekistonda ham UNESCO, IUCN, va boshqa nufuzli tashkilotlar bilan hamkorlikni mustahkamlash, ularning tavsiyalarini milliy darajada joriy etish orqali ekoturizm va madaniy merosni boshqarishdagi ilg‘or yondashuvlar keng tatbiq etilishi mumkin. Shu bilan birga, yoshlarda ekologik va madaniy ongni shakllantirishga qaratilgan maxsus ta’lim dasturlari va targ‘ibot loyihalarining doimiy tashkil etilishi, ushbu yo‘nalishdagi barqaror rivojlanishning muhim tarkibiy qismi sifatida qaralishi lozim. Umuman olganda, ekoturizm va madaniy meros obyektlarini tartibga soluvchi huquqiy normalar orqali tabiat va tarixiy boyliklarimizni asrash, turizmni mas’uliyatli ravishda rivojlantirish va kelajak avlodlarga bebaho meros qoldirish yo‘lida mustahkam zamin yaratilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. UNESCO World Heritage Centre. Managing Cultural World Heritage. – Paris: UNESCO Publishing, 2013. – 122 p.
2. R. Eagles, S. McCool. Tourism in National Parks and Protected Areas: Planning and Management. – Oxford: CABI Publishing, 2002. – 320 p.
3. M. Hall, A. Lew. Sustainable Tourism: A Global Perspective. – London: Routledge, 2009. – 360 p.
4. J. Swarbrooke. Sustainable Tourism Management. – Wallingford: CABI Publishing, 1999. – 400 p.
5. D. Harmon, A. Putney. The Full Value of Parks: From Economics to the Intangible. – Lanham: Rowman & Littlefield, 2003. – 320 p.
6. C. Michael Hall. Tourism Planning: Policies, Processes and Relationships. – Harlow: Pearson Education, 2008. – 320 p.
7. David L. Uzzell, Roy Ballantyne. Contemporary Issues in Heritage and Environmental Interpretation. – London: The Stationery Office, 1998. – 270 p.
8. Peter Stubbs. Heritage-Sustainability: Developing a Methodology for Sustainable Heritage Management. – York: Institute of Advanced Architectural Studies, 2004. – 185 p.
9. Dallen J. Timothy. Cultural Heritage and Tourism: An Introduction. – Bristol: Channel View Publications, 2011. – 320 p.
10. Bill Bramwell, Bernard Lane. Tourism Collaboration and Partnerships: Politics, Practice and Sustainability. – Clevedon: Channel View Publications, 2000. – 348 p.



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o‘g‘li

2025-yil, may.

© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz